“QANOTLI SO‘ZLAR” VA UMUMINSONIY XUSUSIYATLAR BOG`LIQLIGI

Muxtarova Ozodaxon Urunbayevna.
Nemis tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Qanotli so‘zlar" nutqimizga badiiy asarlardan kirib qolgan qisqa sitatalar, obrazli iboralar, afsonalar va badiiy asarlarda tasvirlanganligi, so’ng xalq tilida ko’chma ma’noda o’zlashib ketgan obrazlarning nomlari bilan boyitilganligi xaqida gap ketadi.

Kalit so‘zlar. Qanotli so‘zlar, sitatalar, obrazli iboralar, afsonalar, tugallangan sodda yoki qo’shma gaplar, so’roq va undov gaplar

Har bir xalq asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to’playdi. Shu tajribani u turli vositalar bilan kelajak avlodga meros qilib qoldiradi. Tafakkur durdonalarining ana shunday meroslaridan biri "qanotli so‘zlar" hisoblanadi.

"Qanotli so‘zlar" nutqimizga badiiy asarlardan kirib qolgan qisqa sitatalar, obrazli iboralar, afsonalar va badiiy asarlarda tasvirlangan, so’ng xalq tilida ko’chma ma’noda o‘zlashib ketgan obrazlarning nomlari (masalan; Afandi, Aldar ko’sa, Rustami Doston, Apollon, Artemida va hokazo), tarixiy shaxslar nomidan aytilgan qisqa, ixcham ta’riflardir. "Qanotli so‘zlar" birikmasini dastlab Gomer o‘zining "Iliada" va "Odisseya" dostonlarida ishlatgan. Keyinroq u til va stilistika sohasida ishlatiladigan terminga aylangan. N.S.Ashukin va M.G.Ashukinalarning ko’rsatishicha, “badiiy manbalardangina olinmay, balki turmushda tug’ilgan va tilga singib ketgan har- xil obrazli iboralar, turli kasb-hunar terminlari ham keng mahnoda "qanotli so’zlar" deb tushuniladi.” Demak, bu borada, eng avvalo, "qanotli so’zlar" ning asl mohiyatiga ehtiborni qaratib o’tish joiz bo’ladi.

"Qanotli so‘zlar" tarkibiy tuzilishi jihatidan frazeologizm tarkibiga kiradi, frazeologizm singari til belgilarining muhim funksiyalarini bajaradi, shuningdek, so’z birikmalarining turli tarkiblarida, tugallangan sodda yoki qo’shma gaplar, so’roq va undov gaplar shaklida uchrashi mumkin. Frazeologizm ma’lum bir tilning ichki va tashqi imkoniyatlarini ochib beruvchi va ko’rsatib beruvchi vositalardan biri hisoblanadi.. Frazeolgiya har bir tilning muhim qatlami hisoblanib, uning o‘ziga xos xususiyatlarini yaqqol ko‘zga tashlanishida muhim rol o‘ynaydi. Frazeologizmlarning tilda qanchalik ko‘p bo‘lishi til imkoniyatlarining shunchalik kengligini ko‘rsatadi. Frazeologizmlar (maqol, matal va idiomalar) xalqning o‘tmishi, tarixi, an’analari, urf-odati, va madaniyatini o‘zida yaqqol aks ettiradi. Shu bilan birga, frazeologizmlarda xalqning yorqin milliy xususiyatlari mujassam bo‘ladi, ular chuqur va boy ma’noga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, nutqqa alohida ko‘rk va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi.

Ba’zan esa tarixiy shaxslarning, ilohiylashtirilgan, badiiylashtirilgan qahramonlarning nomlari bo’rttirilgan tarzda ko’rsatiladi. Ba’zi olimlarning fikricha, alohida yakka so’z birikmalari ham "qanotli so’zlar" hisoblanadi. "Qanotli so’zlar" frazeologizmlarga o’xshash, erkin so’z birikmalari emas, balki turg’un so’z komplekslari hisoblanadi. Ular tilda yangi so’zlar hosil qilmaydigan, ayrim guruhlar uchun oldindan ma’lum bo’lgan, umumiy so’zlashuvlarda uchraydigan tayyor til birliklari sanaladi. "Qanotli so’zlar" fikrni teran, " keng ma’noli va mazmunli bo’lishligining asosini tahminlab beruvchi vositalardan biridir. Frazeologik iboralarning quyidagi ikki xususiyati "qanotli so’zlar" uchun ham xosdir:

-komponentning turg’unligi; .

-semantik jihatdan o’zgarish.

Demak, "qanotli so’zlar"ning so’z tarkibidagi vazifasi frazeologizmlarning funktsiyalariga o’xshash bo’ladi. Ular voqeani, shaxsni, holatni qisqa, ixcham, ishonchli tarzda ifodalab bera

oladi. Bahzan esa voqehlikni murakkab tarzda izohlab berishi ham mumkin. Masalan: "danayts tuhfasi" (Danaergeschenk, d.h, eine unheilbringende Gabe, Homer, Odysse).

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Мухтарова О.У. Гарб ва Шарк халклари «канотли сузлари» ва уларнинг узига хос хусусиятлари

Fan, ta’lim va innovatsion rivojlanish istiqbollari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi

2. Muxtarova O.U. G`arb va sharq xalqlaro “Qanotli so‘zlari”, ularning umumiy va xususiy jihatlari.

Fan, ta’lim istiqbollari mavzusidagi 4-sonli Respublika ko’p tarmoqli ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi

3. Ismanova O.U. Xorijiy tillarni oqitishda har bir oquvchi bilan individual shug`ullanish va koprik til mohiyati. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO ILMIY TATQIQOTLAR JURNALI 2022.

4. Ismanova O.U. Turli tizimli tillarda tarjimon mahorati. Universal Journal of social sciences, philosophy and culture, 2023

6. Odinaxon Ismanova. Nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishda tarjimon mahorati. Центральноазиатский журнал образования и инноваций

2023 2 ноя (93-97)

7. Urunbayevna, M. O. (2024). FRAZEOLOGIK TUSHUNCHALAR VA ULARNING TILIMIZDA QO ‘LLANISHI. Journal of new century innovations, 50(2), 19-21.

8. Urunbayevna, M. O. (2024). Aforizmlar va hikmatli so‘zlar mazmun va mohiyati. Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 18(5), 188–190.